O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2026, [14]
ISSN 2181-7324(Print)

FILOLOGIYA
http://journals.nuu.uz
Social sciences
ISSN 3093-8996(Onlayn)

UDK: 821.111.09

Bahodir U. ABSAMADOV,
Dotsent v.b., PhD, Turon universiteti, O‘zbekiston
E-mail: absamadov7777@gmail.com, ORCID: 0009-0008-8719-953X

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti professori, f.f.d. D.Xalilova taqrizi asosida

INGLIZ KOMIK POETIKASINING G‘ARB ADABIY AN’ANASIDAGI TARIXIY RIVOJI VA ZAMONAVIY TRANSFORMATSIYASI

Annotatsiya

Maqola ingliz komediyasi poetikasining XVI–XXI asrlar davomidagi tarixiy rivoji va bugungi transformatsiyasini g‘arb komik an’anasi fonida o‘rganishga bag‘ishlangan. Mavzuning dolzarbligi shundaki, ingliz komediyasiga oid tadqiqotlar asosan alohida davr yoki muallif bilan cheklanib, janr poetikasining o‘zgarishi yaxlit kuzatilmagan. Tarixiy-tipologik, janr-poetik va diskursiv yondashuvlar asosida qirqdan ortiq komediya komik konflikt, xarakter tipi, komik mexanizm, kulgi vazifasi va final tipi bo‘yicha qiyoslandi. Tahlil ingliz komediyasini olti bosqichga ajratdi va to‘rt transformatsiya yo‘nalishi aniqlandi: tuzatuvchi va yarashtiruvchi kulgidan muammo qo‘yuvchi kulgiga, “humour” tipidan psixologik xarakterga, aristokratik zakovatdan ijtimoiy-maishiy hazilga, yopiq finaldan ochiq va absurd finalga o‘tish. Natijalardan ingliz adabiyoti tarixi, qiyosiy adabiyotshunoslik va drama nazariyasida foydalanish mumkin.

Kalit so‘zlar: ingliz komediyasi, komik poetika, janr transformatsiyasi, uyg‘onish davri komediyasi, xarakterlar komediyasi, odob-axloq komediyasi, sentimental komediya, karnaval kulgi, absurd, postmodern komediya.

ИСТОРИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ И СОВРЕМЕННАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ АНГЛИЙСКОЙ КОМИЧЕСКОЙ ПОЭТИКИ В КОНТЕКСТЕ ЗАПАДНОЙ ЛИТЕРАТУРНОЙ ТРАДИЦИИ

Аннотация

Статья посвящена исторической эволюции и современной трансформации поэтики английской комедии XVI–XXI веков в контексте западной комической традиции. Актуальность исследования обусловлена недостаточной изученностью целостной эволюции жанровой поэтики английской комедии, поскольку существующие работы преимущественно сосредоточены на отдельных периодах или авторах. На основе историко-типологического, жанрово-поэтического и дискурсивного подходов сопоставлены более сорока комедий по типам конфликта, характеров, комических механизмов, функций смеха и финалов. Выделены шесть этапов развития английской комедии и четыре направления её трансформации: от исправляющего и примиряющего смеха к проблематизирующему; от типа “humour” к психологически сложному характеру; от аристократического остроумия к социально-бытовому юмору; от закрытого финала к открытому и абсурдному. Результаты исследования могут быть использованы в истории английской литературы, сравнительном литературоведении и теории драмы.

Ключевые слова: английская комедия, комическая поэтика, трансформация жанра, комедия эпохи возрождения, комедия юморов, комедия нравов, сентиментальная комедия, карнавальный смех, абсурд, постмодернистская комедия.

HISTORICAL DEVELOPMENT AND CONTEMPORARY TRANSFORMATION OF ENGLISH COMIC POETICS WITHIN THE WESTERN LITERARY TRADITION

Annotation

This article examines the historical development and contemporary transformation of English comic poetics from the sixteenth to the twenty-first century in the context of the Western comic tradition. The relevance of the study lies in the fact that previous research has largely focused on individual periods or authors, leaving the evolution of the genre’s poetics insufficiently examined as a whole. Drawing on historical-typological, genre-poetic, and discursive approaches, the study compares more than forty comedies in terms of comic conflict, character types, comic mechanisms, functions of laughter, and types of endings. The analysis identifies six stages in the development of English comedy and four major trends in its transformation: from corrective and conciliatory laughter to problematizing laughter; from the humour type to psychological characterization; from aristocratic wit to social and everyday humour; and from closed endings to open and absurd endings. The findings may contribute to the study of English literary history, comparative literature, and drama theory.

Keywords: English comedy, comic poetics, genre transformation, Renaissance comedy, comedy of humours, comedy of manners, sentimental comedy, carnival laughter, the absurd, postmodern comedy.

Kirish. Kulgi madaniyatning eng qadimiy va ayni paytda eng o‘zgaruvchan shakllaridan biri, komediya esa uni badiiy tartibga solib, ijtimoiy ma’no bilan to‘ldiradi. Aristotel kulgili narsani hech kimga azob va halokat keltirmaydigan nuqson bilan bog‘lagan edi [1]. Keyingi davrlarda bu “nuqson”ning mazmuni o‘zgarib bordi: A. Bergson kulgini jamiyatni mexanik qotib qolishdan ogohlantiruvchi “ijtimoiy ishora” (“a sort of social gesture”) deb bilsa [2], N. Fray komediya syujetining mohiyatini jamiyat integratsiyasida ko‘radi: “The theme of the comic is the integration of society” [3].

Ingliz komediyasi g‘arb komik an’anasining eng uzluksiz tarmoqlaridan biridir. Uning ildizlari Ekseter kitobidagi topishmoqlar, Choserning fablio hikoyalari va o‘rta asr dramasidagi maishiy sahnalarga borib taqaladi [4]; keyingi besh asrda esa janr Shekspir va Jonsondan Bekket va Bennettgacha bo‘lgan mualliflar ijodida bir necha bor tubdan yangilandi. Biroq bu boradagi tadqiqotlarning aksariyati

muayyan davr yoki muallif bilan cheklanadi, janrning besh asrlik yo‘li esa yagona poetik mezonlar asosida yaxlit kuzatilmagan. Maqolaning maqsadi – ingliz komediyasi poetikasining tarixiy rivojini davrlar kesimida tizimlashtirish va bugungi transformatsiya yo‘nalishlarini aniqlash. Shu maqsadda uch savolga javob izlandi: janr qanday bosqichlardan o‘tgan, bosqichlar almashinuvida komik konflikt, xarakter va kulgi vazifasi qanday o‘zgargan va zamonaviy ingliz komediyasi g‘arb an’anasi bilan qay darajada bog‘liq?

Adabiyotlar tahlili. Mavzuga oid ilmiy adabiyotlarni shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhni kulgi va komizm nazariyasiga oid fundamental asarlar tashkil etadi. Aristotel komik nuqsonni “og‘riqsiz xunuklik” deb bilsa [1], A.Bergson kulgini hayotiy egiluvchanlik o‘rnini egallagan mexanik qotib qolishga qarshi ijtimoiy reaksiya deb izohlaydi [2]. M.M.Baxtin o‘rta asr va Uyg‘onish davri xalq madaniyatini o‘rganib, karnaval kulgisining ambivalent – ham inkor etuvchi, ham qayta tiklovchi – tabiatini ochib berdi [5]. V.Ya. Propp komizmning psixologik va estetik asoslarini tahlil qilib, kulgi ko‘pincha yashirin nuqsonning kutilmaganda oshkor bo‘lishidan tug‘ilishini ko‘rsatadi [6]. N. Fray komediya syujetini “bahor mifosi” (mythos of spring) bilan bog‘laydi [3]. E.Stott janrni qat’iy qoidalar majmui emas, tarixan o‘zgaruvchan madaniy amaliyot sifatida ko‘rishni taklif etadi [7].

Ikkinchi guruhni ingliz dramasining umumiy tarixiga oid ishlar tashkil etadi. J.G.Nettlton Restavratsiya va XVIII asr dramasini yaxlit jarayon sifatida tasvirlagan [8], A.Nikollning ko‘p jildli “Ingliz dramasi tarixi” esa 1660-1900-yillar repertuari va truppalari bo‘yicha keng tayaniladigan faktografik manbadir [9]. A.Leggat besh asrlik sahna komediyasida saqlanib qolgan barqaror unsurlarni ajratib ko‘rsatgan [10], E.Sanders esa umumiy adabiy-tarixiy kontekstni bergan [11].

Uchinchi guruhni muayyan davr yoki mualliflarga oid tadqiqotlar tashkil etadi. S.L.Barber Shekspir komediyalarini Angliya xalq bayramlari bilan qiyoslab, ularning tuzilishini “ozodlik orqali anglashga” (through release to clarification) formulasi bilan ifodalagan [12]. N.Holland Eteridj, Uicherli va Kongriv komediyalarini “ilk zamonaviy komediyalar” deb baholab, ularda tashqi ijtimoiy qiyofa bilan ichki tabiat o‘rtasidagi ziddiyat markaziy o‘rin egallashini ko‘rsatgan [13]. D.Peyn Fisk tahriridagi to‘plamda Restavratsiya teatri ijtimoiy-madaniy kontekstda o‘rganilgan [14]. K.Innes XX asr Britaniya dramasini, jumladan, Kovard, Orton, Stoppard va Eykborn komediyalarini modernistik va postmodernistik o‘zgarishlar fonida tahlil qiladi [15].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot tarixiy poetika tamoyillariga va janrni dinamik tizim sifatida ko‘ruvchi qarashlarga tayanadi. Tarixiy-tipologik metod ingliz komediyasining rivojlanish bosqichlarini va har bir bosqichning yetakchi janr shakllarini ajratishga, qiyosiy-tarixiy metod esa bir davr ichidagi (masalan, Shekspir va Jonson) hamda davrlararo poetik farqlarni ko‘rsatishga xizmat qildi. Syujet tuzilishi, xarakter tipologiyasi va komik vositalar janr-poetik tahlil orqali o‘rganildi. Bunda N.Fray va S.L.Barberning syujet modellari tayanch vazifasini o‘tadi [3], [12]. Diskursiv yondashuv esa komediyani senzura, teatr tuzumi va tomoshabin tarkibi bilan bog‘liq holda talqin qilish imkonini berdi.

Tadqiqot materiali sifatida XVI–XXI asrlarda yaratilgan qirqdan ortiq ingliz komediyasi olindi. Tanlov mezonida asarning o‘z davri uchun tipikligi yoki janr tarixida burilish yasagani hisobga olindi. Har bir matn besh parametr bo‘yicha tahlil qilindi: komik konflikt manbai, xarakter tipi, yetakchi komik mexanizm (vaziyat, so‘z o‘yini, ironiya, parodiya, absurd), kulgining ijtimoiy vazifasi va final tipi. Avval adabiyotlar asosida davrlashtirish modeli tuzildi, so‘ng matnlar shu parametrlar bo‘yicha qiyoslandi, natijalar esa jadval va chizma shaklida umumlashtirildi.

Tahlil va natijalar. Uyg‘onish davrigacha bo‘lgan bosqich ingliz komediyasi uchun o‘ziga xos “tarixoldi” vazifasini o‘taydi. Qadimgi ingliz topishmoqlaridagi ikki ma’noli ishoralardan Choserning fablio hikoyalaridagi ochiq maishiy hazilgacha bo‘lgan yo‘lda komik ifoda tobora erkinlashib borgan [4]. XVI asr o‘rtalarida maktab dramasi orqali Plavt va Terensiy an’anasi kirib keldi. Nikolas Yudollning “Ralph Roister Doister” (taxm. 1552) asari ingliz tilidagi ilk mumtoz komediyalardan biri sifatida shu ta’sirning samarasidir.

Uyg‘onish davri (1485-1660). Professional teatrning shakllanishi (“The Theatre”, 1576; “The Globe”, 1599) komediyani keng shahar tomoshabiniga yo‘naltirdi va ikki komik modelni yuzaga keltirdi (1-jadval). Shekspir komediyalarida (“A midsummer night’s dream”, “As you like it”, “Twelfth night”) qahramonlar shahardan tashqaridagi “yashil dunyo”da vaqtincha ozod bo‘lib, yangilangan holda jamiyatga qaytadi [3], [12]; kulgi kamsitmaydi, yarashtiradi. Ben Jonson esa “xarakterlar komediyasi” (comedy of humours) asosida bitta ehtirosga tobe statik tiplarni yaratdi (“Volpone”, 1606; “The alchemist”, 1610). Ular bitta hukmron ehtiros – ochko‘zlik, shuhratparastlik yoki ikkiyuzlamachilik egasi bo‘lib, ular o‘zgarmaydi, balki fosh etiladi. Bu Bergson va Propp ta’riflagan tuzatuvchi kulgiga mos keladi [2], [6].

Tomas Middlton (“A chaste maid in Cheapside”, 1613), Tomas Dekker (“The shoemaker’s holiday”, 1599), Uilyam Xoton (“Englishmen for my money”, 1598), Jorj Chapman va Jon Marston ijodida esa shahar komediyasi, fars va satira uyg‘unlashib, Uyg‘onish davri komediyasi yanada tarmoqlandi.

1-jadval.

Shekspir va Ben Jonson komediyalarining poetik tipologiyasi

Mezon	**Uilyam Shekspir**	**Ben Jonson**
Komediya tipi	Romantik (“festive”) komediya	Xarakterlar komediyasi (comedy of humours), satirik komediya
Makon	O‘rmon, orol, sehrli yoki uzoq makon (“yashil dunyo”)	London: ko‘cha, bozor, xonadon
Konflikt manbai	Sevgi to‘siqlari, avlodlar va ijtimoiy rollar ziddiyati	Ochko‘zlik, firibgarlik, ijtimoiy da’vo
Komik mexanizm	Qiyofa almashish, egizaklar chalkashligi, so‘z o‘yini	Fosh etish, ayyorlik intrigasi, nutqiy karikatura
Xarakter	O‘zgaruvchan, o‘zini anglashga qodir qahramon	Bitta ehtirosga tobe statik tip
Final	To‘y, yarashuv, jamiyatga qaytish	Jazo, fosh bo‘lish, axloqiy saboq
Namunalar	As you like it; Twelfth night; A midsummer night’s dream	Volpone; The Alchemist; Bartholomew fair

Manba: muallif tomonidan [3; 10; 12] asosida tuzilgan.

Restavratsiya davri (1660–1700). 1660-yilda yopilgan teatrlar qayta ochilib, sahnaga ilk bor aktrisalar chiqdi; shu paytgacha ayol rollarini o‘smir yigitlar ijro etar edi [14]. Shu muhitda “odob-axloq komediyasi” (comedy of manners) shakllandi. Jorj Eteridjning “The comical revenge” (1664), “She would if she could” (1668) va ayniqsa “The man of mode, or Sir Fopling Flutter” (1676) asarlari janrning tayanch namunalariga aylandi. Eteridj sahnaga ikki barqaror tip – o‘tkir aqlli va axloqan erkin “reyk” (rake) hamda kiyimi va fransuzcha iboralari bilan ovora “fop”ni olib kirdi. Uilyam Uicherlining “The country wife” (1675), Uilyam Kongrivning “Love for love” (1695) va “The way of the world” (1700) komediyalarida kulgi manbai endi xatti-harakat emas, balki so‘z, ya’ni zakovat (wit) bellashuvi bo‘ldi. N.Holland ta’kidlaganidek, bu asarlarda ijtimoiy niqob bilan insonning tabiiy mayllari o‘rtasidagi ziddiyat markaziy o‘rin egallaydi [13]. Afra Benning “The Rover” (1677) komediyasi esa janrga ayol nuqtai nazarini olib kirgani bilan ahamiyatli. 1698-yilda Jeremi Kollerning “A short view of the immorality and profaneness of the English stage” risolasi sahnadagi axloqsizlikka qarshi keng munozara qo‘zg‘atdi va komediyaning keyingi taqdiriga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi [8].

Avgustan davri (1700–1745). Ingliz satirasining oltin davri bo‘ldi. Jon Geyning (1685-1732) “The beggar’s opera” (1728) asari xalq qo‘shiqlari ohangiga yozilgan ariyalari bilan “ballada-opera” janrini boshlab berdi. Unda o‘g‘rilar dunyosi orqali Robert Uolpol hukumati ishora bilan masxara qilinadi. Uning davomi “Polly” (1729) sahnaga qo‘yilishi taqiqlandi. Genri Filding (1707–1754) “Tom thumb” (1730), “Pasquin” (1736) va “The historical register for the year 1736” (1737) pyesalarida siyosiy satirani yanada keskinlashtirdi. Bunga javoban 1737-yilda Teatr litsenziyasi to‘g‘risidagi qonun (Licensing act) qabul qilinib, barcha yangi pyesalar Lord-kamergerning oldindan senzurasidan o‘tkaziladigan bo‘lib, siyosiy komediya sahnadan siqib chiqarildi [9]. Fikrimizcha, ingliz komik romanining (“Tom Jones”, 1749) jadal rivoji qisman shu senzuraning oqibatidir.

Sezgirlik davri (1745-1798). “Sensibility” (nozik his-tuyg‘u, hamdardlik) davrning kalit tushunchasi edi. Kolli Sibberning “Love’s last shift” (1696) va Richard Stilning “The conscious lovers” (1722) asarlaridan boshlangan sentimental komediya endi to‘liq shakllandi. Unda qahramon nuqsoni masxara qilinmaydi, uning ezgu tabiati esa oxirida mukofotlanadi. Shu jihati bilan u fransuz “comédie larmoyante” (“yig‘latuvchi komediya”) siga yaqin turadi. Richard Brinsli Sheridan (1751–1816) “The rivals” (1775) va “The school for scandal” (1777) asarlarida Restavratsiya zakovatini dag‘allikdan tozalab qayta tikladi. Shu bois Sheridan komediyalarini romantizmga emas, balki “anti-sentimental” odob-axloq komediyasining cho‘qqisiga nisbat berish to‘g‘riroq [10].

Romantizm va Viktoriya davri (1798–1901). Romantizm (1798-1837) ingliz she’riyatida inqilob yasagan bo‘lsa-da, komediya bu davrda yetakchi janr bo‘lmadi. Patent monopoliyasi va senzura sharoitida sahnada pantomima (Jozef Grimaldi), burlesk va ekstravaganza (Jeyms Planshe) ommalashdi. 1843-yilgi Teatrlar to‘g‘risidagi qonun patent monopoliyasini bekor qilgach, Viktoriya davrida sahna komediyasi qayta jonlandi. U.S. Gilbert va A. Sallivan operettalari (“The Mikado”, 1885) Viktoriya rasmiyatchiligini absurd darajasiga yetkazib kuldirdi. Oskar Uayldning “The importance of being Earnest” (1895) asarida odob-axloq komediyasi paradoks san’ati darajasiga ko‘tarildi, Bernard Shou esa (“Arms and the man”, 1894; “Pygmalion”, 1913) “g‘oyalar komediyasi”ni yaratib, kulgini ijtimoiy bahs vositasiga aylantirdi.

XX asr: modernizm va urushdan keyingi davr. Noel Kovardning “Private lives” (1930) asari odob-axloq komediyasi an’anasini zamonaviy shahar hayotiga ko‘chirdi. Semyuel Bekketning muallif tomonidan “tragikomediya” deb atalgan “Waiting for Godot” pyesasi (Londonda 1955-yilda sahnalashtirilgan) kulgini ma’nosizlik va cheksiz kutish holatining ifodasiga aylantirdi. Garold Pinter (“The birthday party”, 1958) kulgili maishiy dialog ortiga tahdidni yashiruvchi “tahdid komediyasi” (comedy of menace) shaklini yaratdi. Jo Orton (“Loot”, 1965) farsni qora yumor quroliga, Tom Stoppard (“Rosencrantz and Guildenstern are dead”, 1966) esa Shekspir matnini intertekstual o‘yin maydoniga aylantirdi. Alan Eykborn (“The norman conquests”, 1973) o‘rta sinf hayotini kompozitsion tajribalar orqali kuldirdi, Maykl Frayn (“Noises off”, 1982) esa teatrning o‘zini parodiya qiluvchi metakomediya yaratdi. Keril Cherchill (“Cloud nine”, 1979) esa gender masalasini komik shaklda qayta ko‘rib chiqdi [15].

Zamonaviy bosqich (1980-yillardan hozirgacha). Bu bosqichda komediya teatr, televideniye va musiqiy sahna o‘rtasida harakatlanuvchi intermedial hodisaga aylandi. Ben Eltonning o‘z romani (1996) asosidagi “Popcorn” pyesasi media zo‘ravonligini qora komediya ruhida tanqid qiladi, “We will rock you” (2002) myuzikli esa ommaviy madaniyatning bir xillashuvini kulgi ostiga oladi. Uning Shekspir haqidagi “Upstart crow” sitkomi (BBC, 2016-2018) 2020-yilda sahnaga ko‘chirildi. Alan Bennett “Talking heads” (1988, 1998) monologlari, “The lady in the van” (1999) asarlarida kulgi bilan qayg‘u bir-biridan ajralmaydi. Villi Rassellning “Educating Rita” (1980) asarida ishchi sinfdan chiqqan sartarosh ayol bilan universitet o‘qituvchisi o‘rtasidagi dialoglar ham kulgili, ham falsafiy mazmun kasb etadi. Richard Binning “One man, two guvnors” (2011) komediyasi esa Karlo Goldonining “Ikki xo‘jayinning xizmatkori” asarini 1960-yillar Braytoniga ko‘chirib, commedia dell’arte an’anasini zamonaviy ingliz farsida jonlantirdi. Tahlil natijalari 2-jadvalda umumlashtirildi.

2-jadval.

Ingliz komediyasi poetikasining davriy modeli

Davr	Yetakchi shakllar	Asosiy vakillar	Kulgining yetakchi funksiyasi
Uyg‘onish davri (1485–1660)	Romantik, xarakterlar, shahar komediyasi	Shekspir, Jonson, Middlton, Dekker	Yarashtiruvchi va tuzatuvchi
Restavratsiya (1660–1700)	Odob-axloq komediyasi	Eteridj, Uicherli, Kongriv, A. Ben	Ijtimoiy niqobni fosh etuvchi
XVIII asr (1700–1798)	Ballada-opera, siyosiy satira, sentimental va anti-sentimental komediya	Stil, Gey, Filding, Goldsmit, Sheridan	Siyosiy-satirik, so‘ngra didaktik-sentimental
Romantizm va Viktoriya (1798–1901)	Pantomima, burlesk, operetta, paradoks va g‘oyalar komediyasi	Planshe, Gilbert va Sallivan, Uayld, Shou	Ko‘ngilochar, keyinroq intellektual-tanqidiy
XX asr (1901–1980)	Tragikomediya, absurd, tahdid komediyasi, qora fars	Kovard, Bekket, Pinter, Orton, Stoppard, Eykborn	Muammo qo‘yuvchi, ishonchsizlik uyg‘otuvchi
Zamonaviy bosqich (1980–)	Intermedial, intertekstual, musiqiy komediya	Bennett, Rassell, Elton, Frayn, Bin	Ijtimoiy-psixologik va o‘yinli

Manba: muallif tomonidan [8; 9; 10; 15] va tahlil natijalari asosida tuzilgan.

Natijalar ingliz komik poetikasining to‘rt transformatsiya yo‘nalishini ko‘rsatadi (1-rasm): kulgining tuzatuvchi va yarashtiruvchi vazifasidan muammo qo‘yuvchi vazifaga; “humour” tipi va niqob-tipdan ichki ziddiyatli, o‘zgaruvchan qahramonga; saroy mehmonxonasidan bozor, o‘rta va ishchi sinf muhiti hamda media makoniga; to‘y bilan tugaydigan yopiq finaldan ochiq va absurd finalga o‘tish.

1-rasm.

Ingliz komediyasi poetikasining evolyutsion modeli



Shu bilan birga, qiyofa almashish va tanib olish motivi, ayyor xizmatkor tipi, so‘z o‘yini hamda da’vo bilan mohiyat nomuvofiqligi besh asr davomida deyarli o‘zgarmagan. Bu A. Leggat kuzatuvlariga mos keladi [10]. Baxtin ta’riflagan karnaval kulgisining ambivalentligi [5] ham Shekspirdan Ortongacha qayta namoyon bo‘ladi. Yana bir kuzatuv: janrdagi keskin burilishlar ko‘pincha estetik izlanishlardan ko‘ra institutsional omillar – 1642, 1660, 1737 va 1843-yillardagi teatr siyosati bilan bog‘liq bo‘lgan.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot oldiga qo‘yilgan maqsad – ingliz komediyasi poetikasining tarixiy evolyutsiyasini tizimlashtirish va zamonaviy transformatsiya yo‘nalishlarini aniqlash – belgilangan vazifalar doirasida amalga oshirildi.

Ingliz komediyasi qadimgi va o‘rta ingliz adabiyotidagi “tarixoldi” bosqichidan so‘ng oltita asosiy davrni bosib o‘tgan va har bir davr o‘zining yetakchi komik shakli hamda kulgi funksiyasiga ega (2-jadval). Bosqichlararo o‘tishda komik konflikt, xarakter va kulgi funksiyasi yuqorida ko‘rsatilgan to‘rt yo‘nalishda o‘zgargan (1-rasm). Bu o‘zgarishlar teatr tuzumi va senzura bilan uzviy bog‘liq. Zamonaviy ingliz komediyasi Plavt, commedia dell’arte va Shekspir an’anasini inkor etmay, ularni parodiya, intertekstuallik va intermediallik orqali qayta ishlaydi. Umuman, ingliz komediyanavisligi g‘arb komik an’anasi zaminida shakllanib, xalq tarixi bilan hamohang rivojlangan o‘ziga xos poetik tizimdir.

Kelgusi tadqiqotlar ingliz ayol komediyanavislari (Afra Ben, Syuzanna Sentlivr, Keril Cherchill) ijodi, britan televizion sitkomi va stend-ap komediyasining poetikasi hamda ingliz komik diskursidagi so‘z o‘yinining lingvopoetik tahlili yo‘nalishida davom ettirilishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Аристотель. Поэтика. – Ленинград: Государственная академия художтвенных наук, 1927. – 124 с.
2. Bergson H. Laughter: An Essay on the Meaning of the Comic / transl. by C. Brereton, F. Rothwell. – New York: Macmillan, 1913. – 230 p.
3. Frye N. Anatomy of Criticism: Four Essays. – Princeton: Princeton University Press, 1990. – 400 p.
4. Absamadov B.U. The Gradual Emergence of Comic Elements in Old and Middle English Literature: From Riddles to Satire // International Journal of Literature and Languages. – 2025. – Vol. 5, No. 8. – P. 63–69. – DOI:10.37547/ijll/Volume05Issue08-13
5. Бахтин М.М. Творчество Франсуа Рабле и народная культура средневековья и Ренессанса. – М.: Художественная литература, 1965. – 527 с.
6. Пропп В.Я. Проблемы комизма и смеха. – М.: Искусство, 1999. – 285с.
7. Stott A. Comedy. – London; New York: Routledge, 2004. – (The New Critical Idiom). – 176 p.
8. Nettleton G.H. English Drama of the Restoration and Eighteenth Century (1642–1780). – New York: Macmillan, 2019. – 366 p.
9. Nicoll A. A History of English Drama, 1660–1900: in 6 vols. – Cambridge: Cambridge University Press, 2009. – 476 p.
10. Leggatt A. English Stage Comedy 1490–1990: Five Centuries of a Genre. – London; New York: Routledge, 1998. – 182 p.
11. Sanders A. The Short Oxford History of English Literature. – Oxford: Clarendon Press, 1994. – 678 p.
12. Barber C.L. Shakespeare’s Festive Comedy: A Study of Dramatic Form and Its Relation to Social Custom. – Princeton: Princeton University Press, 2012. – 301 p.
13. Holland N.N. The First Modern Comedies: The Significance of Etherege, Wycherley and Congreve. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1967. – 274 p.
14. The Cambridge Companion to English Restoration Theatre / ed. by D. Payne Fisk. – Cambridge: Cambridge University Press, 2000. – 294 p.
15. Innes C. Modern British Drama: The Twentieth Century. – Cambridge: Cambridge University Press, 2002. – 572 p.